

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11499653>

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O‘YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHINING O‘RNI

**Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi

**Abdumo‘minova Dinara Rustam qizi**

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada mttida bolalarning o‘yin kompetensiyasini rivojlantirishda, o‘yin temp va ritmini tuzishda tarbiyachining roli va o‘yin faoliyati bolalarning ijtimoiylashish jarayonida muhim ahamiyatga egaekanligi haqida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim tashkiloti, o‘yin faoliyati, o‘yin sikli, o‘yin retmi, o‘yin timpi*


***Аннотация.** В данной статье раскрыта роль воспитателя в развитии игровой компетентности детей, формировании игрового темпа и ритма, а также значение игровой деятельности в процессе социализации детей.*

***Abstract.** This article describes the role of the educator in developing the game competence of children in the school, setting the pace and rhythm of the game, and the importance of game activity in the process of socialization of children.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayoti aynan o‘yinda to‘liq rivojlanib, butun o‘quv faoliyati bevosita o‘yin orqali amalga oshiriladi. Bu bolalar uchun eng qulay faoliyat turi, atrofdagi olamdan olingan taassurotlarni qayta ishlash usulidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning o‘yin kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida bolalarda dastlabki tushuncha, bilim ko‘nikmalar shakllanadi. O‘yindagi bolalarning o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabatlari jamoa bo‘lib harakat qilish, do‘stona ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

O‘yinga bolalarning o‘zaro munosabatini o‘yin siklini belgilab beradi va quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

1-rasm. O'yin sikli<sup>1</sup>

M.D.Sheridan o'zining "Erta bolalik davrida o'ynang" nomli kitobida o'yin jarayonida quyidagicha rejalashtirishni tavsiya qiladi:

- bolalarning xulq atvoriga to'g'ri yondoshish orqali yuqori natijali o'yinni belgilab olish;

- bolalar o'yinidagi tanlovini boshqarish va egalik huquqining ahamiyatini belgilash, o'yin signallarining signal berish va ularga javob berish orqali o'yin siklini qanday saqlanishini aniqlash;

- bolalar nima uchun o'ynashini va uni rivojlanish nuqtaiy nazaridan, bolalar uchun nimani qadrli ekanligini tegishli nazariy ma'lumotlarga asosan ko'rib chiqish;

- bolalarga odatda qiziqish o'yg'otadiga o'yin stendlari va bolalar odatlari taraqqiy etadigan xulq-atvor o'yinlari bilan tanishtirish;

- o'yinda bolalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan va ular hayotini aks ettiradigan narsa-hodisalar ta'kidlansin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin jarayonida ishtirokchilarning faoliyatini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> Oscar A.Barbarin, Barbara Hanna Wasik "Handbook of child development & Early education" ("Bolalarni rivojlantirish bo'yicha qo'llanma va dastlabki ta'lim") 2009 The Guilford Press.A Division of Guilford publications, Ins. 72 Spring Sreet, New York, NY 10012, www.guilford.com

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy va muhim jihati tarbiyachining qay darajada bilimli va mahoratli ekanligidir. Tarbiyachi tanlagan o'yin bolalarga ham qiziq bo'lishi lozim. Shu o'rinda bola o'yinni o'zi xohlab bajarishi, tarbiyachi turli qiziqarli o'yinlarga bolalarni jalb qilishi, sayr jarayonida ular bilan birgalikda shug'ullanishi, ularni yangi bilim ko'nikma bilan qurollantirishi orqali bolalarda o'yin kompetensiyasi rivojlantirib boradi.

Shunday qilib maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda muhim bo'lib, o'yinda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda foydalanib kelinmoqda. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishi, bilimi, o'yin kompetensiyalari rivojlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022-yil
2. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, 6(6), 226-227.
3. Ramozonova, B. S., & Xo'shmurod qizi Xolto'rayeva, S. (2023). MALAKAVIY O 'QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO 'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING KONSEPTUAL ASOSLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(32), 181-184..
4. Sadriddinovna, B. R. (2024). MALAKAVIY O 'QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO 'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI HAMKORLIGI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(4), 246-249.
5. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, 6(6), 226-227.
6. Ramozonova, B. S. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O 'YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(11), 4-7.